

## XX ASRNING BIRINCHI YARIMIDA QORAQALPOG'ISTON MAADANIYATINING RIVOJLANISH TARMOQLARI

**Zarafshan Tilepbergen qizi Uzaqbergenova**

21 sanli uliwma orta ta'lim mektebi

Tariyx pani oqitiwshisi

### ANNOTATSIYA

Tinch hayot izlab bir joydan ikkinchi joyga asrlar davomida ko'chib yurgan mehnatsevar qoraqalpoq xalqi moddiy madaniyat yodgorliklarini to'liq saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Xalq iste'dodini namoyon etuvchi boy og'zaki she'riy ijodiyotning janrlari ancha ko'p bo'lgan. Ushbu maqola XX asrning birinchi yarimida Qoraqalpog'iston madaniyatining rivojlanish tarmoqlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** XX asr, Qoraqalpog'iston, dostonlar, tarixiy rivojlanish, tarixiy manbalar.

Qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodi chuqur mazmunga egaligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Xalq ma'naviy madaniyatining yuksak darajasi ajdodlardan avlodlarga yetkaziladigan xalq dostonlarida, termalarida, shuningdek, musiqali o'lanlarda saqlanib qolgan. Xalq orasida qoraqalpoq folklorining doston yo'llari mashhur edi. Doston qahramonlik haqida she'riy asarlar bo'lib, ularda xalq baxt-saodati va farovonligi uchun kurashgan mard botirlarning buyuk jasoratlari madh etilgan. Ancha mashhur bo'lgan dostonlar orasida esa qoraqalpoqlarning ozodlik va mustaqillik uchun fidoyilarcha kurashi tasvirlangan "Qirqqiz" dostoni alohida ajralib turadi.

Dostonda Sarkub hukmdori Olloyor o'z qizi Guloyimga Muyeli degan hosildor yerlarni tortiq qilgani haqida aytiladi. Bu joyda Guloyim va uning qirq kanizagi mustahkam bir qal'a barpo etishadi. Dushmanlar Sarkub yerlariga hujum qilib, Guloyimning otasini o'ldirishadi. Sarkub mulklari talanadi, sarkubliklarning ko'pi asir olinib haydab ketiladi. Guloyim va uning kanizaklari dushmanga qarshi kurashga kirishadi, qoraqalpoqlarni asirlikdan ozod qiladi va ona yurtga ozodlikni qaytaradi. Bu ishda Guloyimga uning oshig'i xorazmlik bahodir Arslon yordam beradi. Dostonning bosh g'oyasi — yuksak vatanparvarlik hissi va ona Vatanga, xalqqa fidoyilarcha muhabbatdir. "Qirqqiz" dostoni bugungi kunda xalq og'zaki ijodining durdonalaridan biri sanaladi.

XIX asr oxiri–XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning bir qancha madrasasi bo'lib, ulardan eng kattalari Qoraqum eshon va Tosh madrasalari edi. Qoraqum eshon madrasasi XIX asr

o‘rtalarida qurilgan. Dastlab u masjid vazifasini bajargan. Tosh madrasa esa 1841-yil Mang‘it hokimi Xo‘janiyoz tomonidan qurdirilgan. Madrasada ta‘lim ikki bosqichli bo‘lib, birinchi bosqichda arab tili grammatikasi o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi bosqichda diniy-huquqiy bilimlar o‘qitilgan. XIX asr oxirida qoraqalpoqlarning yozma asarlari rivojlana boshladi. Qoraqalpoq shoirlari Kunxo‘ja (1799–1880), Otash Olshinboy (1788–1875), Ajiniyoz (1824–1878) kabilarning nomlari keng tanildi. Ular bilimdon, o‘z taqdirini xalqining taqdiri bilan bog‘lagan kishilar edi. Masalan, Kunxo‘ja o‘z ijodiyotini ovullarning oddiy ahliga, ularning kundalik mehnati va turmushiga bag‘ishladi. U adolatsiz tartiblarni qattiq qoraladi. Ajiniyoz Qasiboy o‘g‘li (taxallusi Zevar) Mo‘ynoqdagi eski maktabda, so‘ngra Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida o‘qigan. Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo‘lib oxund (o‘qimishli, ilimli kishi; xalq dostonlari ning mahoratli kuychisi) darajasiga erishgan. O‘zbek, qozoq, turkman tillarini yaxshi bilgan.

Shoirning “Bo‘zatov” dostonida qoraqalpoq xalqining hayoti, ayniqsa, ularning yurtma-yurt ko‘chib yurish jarayoni bilan bog‘liq voqealar katta mahorat bilan tasvirlangan. Ajiniyoz adabiy merosidan bizga 100 ga yaqin she‘rlar va dostonlar yetib kelgan. Uning she‘rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari kuylangan. “Qiz Mengesh bilan aytishuv” dostoni esa xalq orasida mashhur bo‘lgan. Uning hayoti va ijodi haqida qoraqalpoq yozuvchisi K. Sultonov “Ajiniyoz” romanini yozgan. Berdaq (1827–1900) qoraqalpoqlarning buyuk shoiridir. U qo‘ng‘irot urug‘iga mansub bo‘lib, Orol bo‘yida tug‘ilgan. Ovul maktabida, so‘ngra Qoraqum eshon madrasasida o‘qigan. 20 yoshidan she‘rlar yoza boshlagan va yarim asr davomida turli mavzularda o‘lanlar to‘qidi. Berdaq o‘z ijodini xalqi uchun o‘lmas asarlar yaratishga bag‘ishladi. She‘rlaridan biri ham “Xalq uchun” deb nomlangan.

Uning she‘rlarida zulmni qoralovchi tuyg‘ular, jo‘shqinlik ustuvor bo‘lgan. Jumladan, “Ahmoq podshoh” dostoni shunday ulkan ta‘sir kuchiga ega edi.

Qoraqalpoqlar O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasining asosiy va tub aholisidir. Qoraqalpoq xalqi turli etnik guruhlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun bu xalqning madaniyati ko‘p qirrali bo‘lib, Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari madaniyati bilan hamohangdir.

Uzoq vaqt davomida O‘rta Osiyo hududlarini kezib yurgan turkiy qabilalar qoraqalpoqlar madaniyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Qoraqalpoqlarning qabilaviy bo‘linishida bijanaklar, o‘g‘uzlar, qipchoqlar, shuningdek, qirg‘iz, Oltin O‘rda, qozoq, turkman va o‘zbek qabila birlashmalari bilan aloqalarni kuzatish mumkin.

Ko‘chmanchilar uyushmalari bilan ko‘p asrlik aloqalarga ega bo‘lishiga qaramay, qoraqalpoqlar sug‘orish, chorvachilik va baliqchilikka asoslangan qishloq xo‘jaligini

birlashtirgan xo‘jalikning o‘ziga xos turini saqlab qolgan. Qoraqalpoqlar bug‘doy, sholi, tariq, jugara (jo‘xori urug‘idan yem va boshqoli don), kunjut, paxta yetishtirgan, shuningdek, beda ekan. Ular buqalar va otlarni boqishgan. Qoraqalpoqlar orasida baliqchilik bilan, asosan, Orol dengizi sohillari va Amudaryo deltasida yashagan qabilalar shug‘ullangan. Baliq qamish, shuningdek, nayza va to‘r yordamida tutilgan.

Ularning qabilaviy bo‘linishi qoraqalpoqlar madaniyatida katta ahamiyatga ega edi. Qoraqalpoqlarning butun hududi ikki qabilalar konfederatsiyasi: aris va qo‘ng‘irotlar o‘rtasida bo‘lingan. Aris konfederatsiyasiga 12 dan ortiq qabilalar kirgan, ular 100 urug‘dan iborat edi. Ular asosan Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i hududida yashagan. Qo‘ng‘irot qabilalari, shunga ko‘ra, Amudaryoning chap qirg‘og‘ini egallagan.

Qoraqalpoqlarning an‘anaviy hunarmandchiligi orasida to‘quvchilik, gilamdo‘zlik, kigizdo‘zlik, bo‘yrado‘zlik, kiyim tikish alohida ajralib turadi.

Qoraqalpoq erkaklarining kiyimlari o‘zbeklarnikidan unchalik farq qilmaydi. Ular oq to‘nga o‘xshash ko‘ylak, etik ichiga tiqilgan keng shim, mayda yo‘l-yo‘l quyuq matodan tikilgan keng xalat, qishda esa qo‘y terisidan, ichida jun qo‘yilgan to‘n kiyishgan.

Ayollar kostyumi ham ko‘ylak, shim va xalatdan iborat edi, lekin kamzul o‘rniga ular ko‘pincha yengsiz kamzul kiyishgan. Qoraqalpoqlar qizil va ko‘k ranglar ustunlik qiladigan, ko‘plab kashta va metall bezakli yorqin rangli kiyimlarni kiyishni yaxshi ko‘radilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Tarixi 9, V bo‘lim. XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida qoraqalpoqlar
2. „[https://t.me/Tariyxqa\\_nazer](https://t.me/Tariyxqa_nazer)“. 2024-yil 23-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2024-yil 23-sentyabr.
3. Камал Мамбетов. Қарақалпақлар тарийхы. Нөкис. «Қарақалпақстан» 1993.
4. Heyer, Evelyne; Balaesque, Patricia; Jobling, Mark A; Quintana-Murci, Lluís; Chaix, Raphaelle; Segurel, Laure; Aldashev, Almaz; Hegay, Tanya (1 September 2009). "Genetic diversity and the emergence of ethnic groups in Central Asia". *BMC Genetics*. 10: 49. doi:10.1186/1471-2156-10-49. ISSN 1471-2156. PMC 2745423. PMID 19723301.
5. Расовый тип каракалпаков. Дата обращения: 25 декабря 2012. Архивировано 10 января 2018 года..
6. Гаплогруппы и гаплотипы 50-ти каракалпаков Архивная копия от 7 июня 2013 на Wayback Machine.
7. „Административное устройство Каракалпакии во второй половине XIX — начале XX вв“. 2022-yil 31-martda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2020-yil 14-mart.